Disklarga xizmat ko‘rsatuvchi fayllar

Abdujalilova Maxliyo Abduvoxid qizi

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti

matematika informatika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada disklarga xizmat ko‘rsatuvchi fayllar, disklar bilan ishlaydigan dasturlar, yordamchi disklar va qattiq disklarga xizmat ko‘rsatish amallari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xotira tulari, disklarning turlari, markaziy protsessor va fayl.

Disklarning turlari:

1983-yil Sony kompaniyasi bozorga kata shov-shuvlarga sabab bo‘lgan CD-ROM (Compact Disk Only Memory – kompakt disk, faqat o‘qiladigan xotira) disklarni va ular uchun disk yurituvchilarni bozorga chiqardi.

Kompakt disklarning uch turi mavjud:

1. CD-ROM
2. CD-R
3. CD-RW

CD-R – (Compact Disk Recordable – yozish mumkin bo‘lgan) larga maxsus disk yurituvchi qurilma yordamida bir marta yozish mumkin.

CD-RW – (Compact Disk Rewritable – qayta yozish mumkin bo‘lgan) disklarga bir necha (mingtagacha) marta qaytadan axborot yozish mumkin.

1995-yil yangi turdagi optik disklar DVD (Digital Video Disk – raqamli video disk) lar yaratildi. Ular kompakt disklardan kata sig‘imlari bilan ajralib turadilar.

Digital Video Disk (DVD) – qattiq disklarning keying yangi avlodi bo‘lib, ma’lumotlarni tashish, saqlash asosan videoli ma’lumotlar uchun foydalaniladi va keng tarqalgan.

Ularning ikki turi mavjud:

1. DVD-R
2. DVD-RW

DVD-R (Digital Video Disk - Read) – O‘qish uchun ishlatiladigan raqam video disk. Unga faqat bir marta ma’lumot yoziladi va o‘chirib bo‘lmaydi.

DVD-RW (Digital Video Disk – Read Write) – o‘qish va yozish uchun ishlatiladigan raqamli video disk. Unga bir necha marta ma’lumot yoziladi va o‘chiriladi.

DVD disk turlari:

1. Bir qatlamli.

2. Ikki qatlamli.

Bir qatlamli DVD disk 4,7 Gbayt ma'lumotlarni saqlaydi, bu 135 minut davom etadigan videofilmni yozishga yoki tovushni 9 soat eshitishga yetadi.

Ikki qatlamli – Raqamli DVD videodisklar bo‘lib, bu disklarga ma'lumot ikki qatlamli va ikki tomonli yoziladi. Shuning uchun ham ularga kata sig‘imli ma'lumotlar ketadi, ularning sig‘imi 4,7 Gbayt, 8,5 Gbayt, 9,4 Gbayt, 17 Gbaytga teng bo‘ladi.

Disklarni o‘qish qurilmalari:

Disketa – ma'lumotlarni dasturlarni doimiy saqlash, uzatish qabul qilish maqsadida disketalar ishlatiladi. Unga FDD (Floppy Disk Driver – egiluvchan disk qurilmasi) yordamida ma'lumotlar va dasturlar yoziladi va undan o‘qiladi. Hozirda HD (High Definition – yuqori aniqlikdagi) rusumidagi asosan hajmi 1,44 yoki o‘ta yuqori 2,88 Mbaytga teng bo‘lganlari keng ishlatilmoqda.

ZIP disk – qattiq disklarning keying yangi avlodi bo‘lib, kata hajmli ma'lumotlarni tashish, saqlash asosan videoli ma'lumotlar uchun ishlatiladi. Ularning hajmlari 100 Mbaytdan 1,3 Gbaytlilari mavjud.

Blue Ray disklarining hajmi 25 GB bo‘lib, ulardan DVD standartidan ham yuqori sifatli HD (High Density – yuqori aniqlikdagi) va Full HD – to‘liq yuqori aniqlik standartidagi teleko‘rsatuvlar va videomateriallarni saqlash uchun ishlatiladi.

Disklarga xizmat ko‘rsatuvchi dasturlar:

CD va DVD dsiklarga matn, tasvir rasm, audio, video fayllarni yozish va qayta yozish uchun asosan hozirgi kunda Nero Express, Total Commander tarkibidagi aBurner dasturlari ishlatiladi. Nero dasturi kompyuterga o‘rnatilgan bo‘lsa, uni ishga tushirish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajaramiz:

Пуск → Все программы → Nero → Nero Express

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://arxiv.org sayti
2. “Informatika o‘qitish metodikasi” kitobi
3. https://fayllar.org sayti